

ISSN: 2181-1040  
DOI: 10.26739/2181-1040  
tadqiqot.uz/renaissance



# JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL  
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6 |  
ISSUE 1**

**2025**

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE  
VOLUME 6, ISSUE 1



## Бош муҳаррир:

### МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

##### ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо  
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

##### ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

#### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,  
профессор (Ўзбекистон)

#### ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий  
академияси академиги, санъатшунослик фанлари  
доктори, профессор (Ўзбекистон)

#### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари  
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

#### ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

#### ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий  
ва инновация ишлари бўйича проректори,  
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

#### КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари  
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

#### АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети  
профессори (Испания)

#### ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги  
Ўзбекистон Миллий университети  
халқаро ишлар бўйича проректори,  
филология фанлари доктори,  
профессор (Ўзбекистон)

#### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,  
тарих фанлари доктори (АҚШ)

#### ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети  
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

#### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети “Фалсафа” кафедраси  
мудир, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

#### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

#### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти  
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

#### ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий  
университети доценти, педагогика фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

#### ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

#### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

#### ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

#### РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Главный редактор:

**МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА**

доктор философских наук, профессор  
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА**

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент  
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ**

доктор философских наук (PhD), Национальный  
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ**

Ректор Национального университета Узбекистана,  
профессор (Узбекистан)

**ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ**

Академия наук Узбекистана,  
академик Академии художеств Узбекистана,  
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

**МАРИАННА КАМП РУТЦ**

профессор Центра Евразийских исследований  
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

**ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ**

Профессор ISFT института,  
доктор политических наук (Узбекистан)

**ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ**

проректор по научным исследованиям и инновациям  
Международной исламской академии Узбекистана,  
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

**КЛЭР РООСИЕН**

PhD доктор кафедры  
Славянских языков и литературы  
Йельского университета (США)

**АНТониО АЛОНСО МАРКОС**

профессор Университета  
CEU имени Сан Пабло (Испания)

**ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА**

проректор по международным связям  
Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,  
профессор (Узбекистан)

**КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ**

профессор Университета Хофстра,  
доктор исторических наук (США)

**ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ**

профессор кафедры религиоведения и культурологии  
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,  
доктор философских наук (Казахстан)

**ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА**

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского  
государственного университета, кандидат  
философских наук, профессор. (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ**

профессор Наманганского инженерно-технологического  
института, доктор философских наук (Узбекистан)

**САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА**

Навоийского государственного педагогического института,  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

**ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ**

доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)  
по педагогическим наукам (Узбекистан)

**ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА**

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии  
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ**

доцент Наманганского государственного университета, доктора  
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

**ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ**

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо  
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ**

докторант кафедры Философии и логики Национального  
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## Chief Editor:

**MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor  
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

**YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA**

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,  
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

**KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH**

Doctor of Philosophy (PhD), National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

**MADJIDOV INOM URUSHEVICH**

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

**KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH**

Academy of Sciences of Uzbekistan,  
Academician of the Academy of  
Arts of Uzbekistan, Doctor of  
Art History, Professor (Uzbekistan)

**MARIANNE KAMP RUTZ**

Professor of the Center for Eurasian Studies  
at Indiana University, Doctor of History (USA)

**DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH**

Professor of the ISFT Institute,  
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

**ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH**

Vice-Rector for Research and Innovation of the  
International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

**CLAIRE ROOSIEN**

Department of Slavic Languages and Literature  
of the Yale University, PhD (USA)

**ANTONIO ALONSO MARCOS**

Professor of the University of CEU  
named after San Pablo (Spain)

**SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA**

Vice-Rector for International Affairs of the National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

**KARIMOV ELYOR ERIKOVICH**

Professor of the Hofstra University,  
Doctor of Historical Sciences (USA)

**GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH**

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

**YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA**

the head of the "Philosophy" department of Andijan  
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

**MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH**

Professor of the Namangan Institute of Engineering  
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

**SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA**

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor  
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

**INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH**

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

**JURAEVA NIGORA AVAZOVNA**

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

**MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH**

Associate Professor of Namangan State University,  
Doctor of Philosophy (PhD) on  
Sociological Sciences (Uzbekistan)

**SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH**

The National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

**RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI**

doctoral student of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Akmal Jumanazarov, Noibaxon Mamadalieva</b> AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA O'LCHASHLARNING QO'LLANILISHI.....	7
<b>2. Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna</b> SOHIBQIRON AMIR TEMUR QARORLARINING MANTIQUIY ASOSLANISHI.....	15
<b>3. Karimov Elyor Erikovich, Madayeva Shahnoza Amanullaevna</b> POSTJADIDCHILIK DAVRIDA O'ZBEK IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHI.....	21
<b>4. Nilufar Tuychiyeva Maxsutjanovna</b> TASAVVUF ILMI RIVOJIDA ABU NASR SARROJNING O'RNI.....	30
<b>5. Джураева Нигора Авазовна</b> СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА.....	40
<b>6. Yusupova Dildora Dilshatovna</b> YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA ISLOMNING SIYOSIYLASHUVI VA UNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	49
<b>7. Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna</b> "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA ARABCHA SO'ZLAR VA BADIY SAN'ATLARNING UYG'UNLIGI.....	55
<b>8. Xojiev Tunis Nurkosimovich</b> YANGI MODERNIZATSIYA KONSEPSIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI...	61
<b>9. Jo'rayev Anvar Muhammadiyevich</b> IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI.....	69
<b>10. Bultakov Begzod Abdurasulovich</b> INTERNETDA MILLIY KONTENTNING OMMALASHUVI: O'ZBEK MADANIYATI VA TILINING RAQAMLI MAKONDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	79
<b>11. Norboyev Javlon Akbarali o'g'li</b> IBN AL-ARABIYNING VAHDAT UL-VUJUD TA'LIMOTIDAGI PANTEISTIK QARASHLAR VA KLASSIK PANTEIZM.....	86


МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ  
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

ISSN: 2181-1040  
www.tadqiqot.uz

**Xojiev Tunis Nurkosimovich**

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti “Huquqiy fanlar”  
kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori  
E-mail: karfagen\_87@mail.ru

## YANGI MODERNIZATSIYA KONSEPSIYALARINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15126832>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy konsepsiyalari transformatsiyasiga taʼsir koʻrsatgan modernizatsiya nazariyalari falsafiy tarixiy tahlil asosida tadqiq etilib, ularning shakllanishidagi omillar aniqlangan holda empirik voqʻelikning oʻzgarib borishiga mutanosib ravishda modernizatsion paradigmaning xronologik evolyusion taraqqiyot bosqichlari tahlil etiladi. Gʻarb va Sharq davlatlaridagi avtoritar davlatlarning rivojlanmaganligiga sabab boʻlgan samarasiz siyosiy va iqtisodiy institutlar tahlil etilib ijtimoiy rivojlanishdagi siyosiy va iqtisodiy institutlarning ahamiyati boʻyicha xulosalar beriladi. Ijtimoiy oʻsish boʻyicha oʻz taraqqiyot modelini ishlab chiqayotgan davlatlar uchun barcha mahalliy xususiyatlarni hisobga olish lozim boʻlgan modelni yaratish lozimligi yuzasidan xulosalar beriladi. Shuningdek, XX asr ohiridagi modernizatsion paradigmaning xronologik evolyutsiyasiga tayangan holda uni tushuntirishga qaratilgan nazariy modellar turkumlashtiriladi hamda ularning oʻzaro transformatsiyasi ochib beriladi.

**Kalit soʻzlar:** modernizatsiya, siyosiy modernizatsiya, ijtimoiy rivojlanish, modernizatsion yondashuv, modernizatsion paradigma, modernizatsiya nazariyalari, anʼanaviy jamiyat, zamonaviy jamiyat.

**Xojiev Tunis Nurkosimovich**

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Associate Professor of the Department of “Legal Sciences”  
at the Faculty of Social Sciences, Doctor of Philosophy (PhD)  
E-mail: karfagen\_87@mail.ru

## DISTINCTIVE CHARACTERISTICS OF NEW MODERNIZATION CONCEPTS

### ABSTRACT

This article, based on a philosophical and historical analysis, explores modernization theories that have influenced the transformation of contemporary concepts of social development. The stages of the evolution of the modernization paradigm are analyzed in accordance with the changes in empirical reality, identifying the factors that influence their formation. Ineffective political and economic institutions that have caused the backwardness of authoritarian regimes in both the West and the East are examined, and conclusions are drawn about the significance of political and economic institutions in social development. For developing countries that are designing their own model of

social development, conclusions are presented regarding the necessity of creating a model that takes into account local specificities. Furthermore, based on the chronological evolution of the modernization paradigm at the end of the 20th century, theoretical models explaining this paradigm are systematized, and their reciprocal transformation is revealed.

**Keywords:** modernization, political modernization, social development, modernization approach, modernization paradigm, theories of modernization, traditional society, modern society.

**Хожиев Тунис Нуркосимович**

Национальный университет Узбекистана имени  
Мирзо Улугбека Доцент кафедры “Правовые науки” факультета  
социальных наук, доктор философии по философским наукам (PhD)  
E-mail: karfagen\_87@mail.ru

## СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НОВЫХ КОНЦЕПЦИЙ МОДЕРНИЗАЦИИ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе философско-исторического анализа исследованы теории модернизации, оказавшие влияние на трансформацию современных концепций социального развития. Проанализированы этапы эволюции модернизационной парадигмы в соответствии с изменением эмпирической реальности, с выявлением факторов, влияющих на их формирование. Рассмотрены неэффективные политические и экономические институты, ставшие причиной отсталости авторитарных режимов на Западе и Востоке, и сделаны выводы о значении политических и экономических институтов в социальном развитии. Для развивающихся стран, разрабатывающих собственную модель социального развития, представлены выводы о необходимости создания модели, учитывающей все местные особенности. Кроме того, опираясь на хронологическую эволюцию модернизационной парадигмы конца XX века, систематизированы теоретические модели, объясняющие эту парадигму, и раскрыта их взаимная трансформация.

**Ключевые слова:** модернизация, политическая модернизация, общественное развитие, модернизационный подход, парадигма модернизации, теории модернизации, традиционное общество, современное общество.

**Kirish va mavzuning dolzarbligi.** Ijtimoiy gumanitar fan sohalariga oid tadqiqotlarda ijtimoiy rivojlanish kategoriyasini tushuntirishga qaratilgan xilma-xil paradigmalar yondashuvlarini uchratish mumkin. Ularning har birida ayni kategoriyaning mazmunini tashkil qiluvchi muayyan belgilar dominant qilib olingan holda butun boshli kishilik jamiyati taraqqiyoti tushuntirib beriladi. Bu esa, bir jihatdan ijtimoiy taraqqiyot kategoriyasini yaxlit va kompleks tarzda tushunishga imkon bersa, boshqa tomondan esa bunday yondashuvlarning birontasini mutloqlashtirish ushbu kategoriya mazmunini bir yoqlama cheklangan tarzda tushunishga olib kelishi mumkin. Turli metodologik chalkashliklarning oldini olish maqsadida mazkur tadqiqot predmeti doirasida nazarda tutiladigan ijtimoiy rivojlanish kategoriyasining chegaralarini muayyan darajada freyming metodini qoʻllagan holda chegaralab olish uning evolyusiyasini esa ayni belgilab olingan pozitsiya nuqtayi nazaridan koʻrib chiqish talab qilinadi.

Mazkur tadqiqot predmeti doirasidan kelib chiqqan holda ijtimoiy rivojlanish kategoriyasi deganda oʻtmishdagi biror bir holat yangi tizim taraqqiyotining hech bir bosqichida toʻlaligicha qayta takrorlanmaydigan qolaversa, vaqt oʻtishi bilan muayyan sohaga oid tizim parametrlari tobora yangi daraja kasb etib borishiga yoʻnalgan jarayon tushuniladi. Bular sirasiga iqtisodiy koʻrsatkichlarning oʻsib borishi, texnik taraqqiyot, aholi sonining oshib borishi kabilarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari alohida sohalariga oid parametrlar oʻsish surʼatlarining tezlashishi tabiiy ravishda tizim umumiy holatining ham yaxshilanib borishiga, jumladan jamiyatda ijtimoiy tenglik holatining mustahkamlanishi, demokratik jarayonlarning yangicha sifat koʻrsatkichlari kasb etib

borishiga olib keladi. Ziddiyatlar yangi ijtimoiy hayot shakllari, aholi ijodiy qobiliyatlarini yirik innovatsion tashkillashishga yo'naltirish kabi tizimning immanent xususiyatlari orqali hal qilinadi.

**Metodlar va o'rganilganlik darajasi.** XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'arb davlatlarining sobiq mustamlaka va yarim mustamlakalarini qamrab olgan transformatsiya jarayonlari G. Almond, R. Aron, D. Bell, S. Blek, S. Verba, E. Giddens, M. Levi, D. Lerner, V. Rostou, T. Parsons, P. Berger, R. Inglehart, N. Smelser, S. Xantington, V. Zapf, P. Shtompka, S. Eyzenshtadt kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, Modernizatsiyalarning ko'p qirraligi nazariyasi S. Eyzenshtadt, P. Stompka, E. Tiriakyan va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan P. Sztompka o'z asarlarida modernizatsiya jarayoni bilan birga keladigan harakatlar va holatlarning xilma-xilligi va tasodifiyligi haqida tushuncha beradi.

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

**Muhokama.** So'nggi yillarda jahon miqyosida kuzatilayotgan siyosiy inqirozlar, qaysidir ma'noda global iqtisodiy inqirozlarning belgilarini ham namoyon qilmoqda. Shu davrgacha dunyo miqyosida har qanday inqirozlardan keyin yangi voq'elikni tartibga solish bo'yicha rivojlanish modellari ishlab chiqilgan. Bugungi kunda ham jahonning turli hududlarida ro'y berayotgan siyosiy inqirozlar yaqin kelajakda dunyoning keyingi taraqqiyoti uchun rivojlanishning yangi nazariyalarining shakllanishini kun tartibiga qo'yadi. Shu davrgacha esa rivojlanish bo'yicha mutaxassislar, asosan, modernizatsiya nazariyalarining turli ko'rinishlari va shakllarini o'rganib kelmoqdalar. Ikkinchi jahon urushidan keyin ya'ni XX asr o'rtalarida shu vazifani ijtimoiy taraqqiyot to'g'risidagi modernizatsiya nazariyasi bajargan edi. Ko'pgina holatlarda modernizatsiyalash yo'lidan borayotgan davlatlar soha mutaxassislari tomonidan talab qilingan barcha shartlarni bajarsalar ham aytarli natijalarga erishmaganliklari oqibatida modernizatsiya nazariyalariga shubha bilan qaray boshlaganlar. Shuningdek, XX asr ohirida ham ko'plab davlatlar o'z jamiyatlarini modernizatsiya qilishga bo'lgan urinishlari modernizatsiya modellaridan kutilgan natijalarni bermadi. Daron Adjemoglu va Djeyms Robinson o'zlarining "Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari" [1, - p. 529] deb nomlangan kitobida davlatlar taraqqiyoti ushbu davlatlardagi iqtisodiy va siyosiy institutlarning samaradorligiga bog'liqligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. Ushbu mualliflarning "Tor yo'lak: davlat, jamiyat, ozodlik taqdiri" [1, - p. 576] nomli asarini to'ldirishga xizmat qiluvchi maqolasida "istalgan tipdagi yangi qiyofa kasb etayotgan mamlakatdagi davlat va jamiyat munosabatlarini tushunishda madaniyatning rolini hisobga olmaslik mumkin emas. Zero, madaniyat biror bir rejimning legitimlashuvida muhim rol o'ynaydi", - deb yozadi. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan ushbu nazariya aynan XX asr oxiridan boshlab, nima uchun avtoritar davlatlarda modernizatsiya muvaffaqiyatga erishmaganligi borasidagi tadqiqotlar natijalarida shakllangan edi. Huddi shu yo'nalishda izlanish olib borgan tadqiqotchilardan yana biri Frensis Fukuyama edi. 2004 yilda uning modernizatsiya muvaffaqiyatining asosiy sharti davlat boshqaruviga bog'liqligi borasidagi qarashlarini o'z ichiga olgan "Kuchli davlat. XXI asrda boshqaruv va jahon tartibi" [2] asari nashr etildi. Frensis Fukuyama ushbu asarida mavjud konsepsiyalar takliflarini amaliyotda qo'llash natijalari bilan taqqoslab, siyosiy modernizatsiya nazariyasini ishlab chiqishga yangicha yondashdi. U so'nggi 60 yil davomida davlat qurilishi haqidagi mavjud ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqib, muvaffaqiyatli ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirishning aniq qoidalarini shakllantirdi. Asar markazida nafaqat alohida olingan davlatlar muammosi, balki shakllangan global makon barqarorligi masalasi ham turgani bois, muallif "kelajakdagi jahon tartibi uchun eng muhimi - davlat qurishni o'rganishdir" qat'iy xulosaga keladi [3, - c. 199].

Mohiyatan bu F. Fukuyama siyosiy modernizatsiyani dolzarb universal vazifa sifatida tan olishini anglatadi. U zaif davlatlardan qat'iyat bilan o'zgarishlarni kutib, kuchli davlatlardan esa mustaqil ravishda bunga qodir bo'lmagan sayyoramizning boshqa hududlaridagi inklyuziv davlat institutlarini yaratishiga umid qiladi. Muallif o'z nazariyasining boshidanoq bunday hollarda tashqi yordamning samaradorligi barcha uchun umumiy bo'lgan ma'muriy modelni ishlab chiqishning ob'ektiv imkonsizligi tufayli jiddiy cheklangan [3, - c. 200] bo'lishini ta'kidlaydi [3, - c. 8].

F.Fukuyama konsepsiyasining asosida “davlat institutlarining kuchi” va “ularning ta’sir doirasi” tushunchalarini farqlash yotadi. Birinchisi davlatning o‘ziga yuklatilgan vazifalarni tegishli ravishda bajarish qobiliyati sifatida, ikkinchisi esa davlat organlari vakolatlarining ko‘lami va chuqurligi tarzida tushuniladi. Ushbu formulaga ko‘ra, barcha G‘arb mamlakatlari kuchli davlat institutlariga ega bo‘lib, ularning ta’sir doiralari keskin farq qilmaydi. Samaradorlik nuqtai nazaridan eng yomoni ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo‘lgan zaif institutlar va keng davlat vakolatlari tizimidir. XX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari erishgan yutuqlardagi keskin farqlar ularning ta’sir doiralariidagi farqlarda emas aynan birinchilarning davlat institutlari ustunligida yashiringan edi [3, - c. 42].

F.Fukuyamaning fikricha, eng katta xavflardan biri kuchli ijtimoiy va davlat institutlariga tayanmaydigan erkinlashtirishdir. Aynan shu vaziyatda Tomas Gobbs ta’riflaganidek, “hammaning hammaga qarshi urushi” boshlanishi xavfi paydo bo‘ladi [3, - c. 13].

F.Fukuyama muvaffaqiyatli siyosiy modernizatsiyaga erishish uchun e’tiborga olinishi va tayanilishi lozim bo‘lgan to‘rtta o‘zaro bog‘liq jihatni ajratib ko‘rsatadi: 1) Tashkiliy loyihalash va boshqaruv; 2) Siyosiy tizimni shakllantirish; 3) Qonuniylik asoslari; 4) Madaniy va ijtimoiy omillar.

Bu tarkibiy qismlar, tasavvur qilish qiyin bo‘lmaganidek, bir jamiyatdan boshqasiga turlicha o‘tkazilish xususiyatiga ega. Nisbatan qisqa vaqt ichida siyosiy tizimni yaratish va asosiy xodimlarni boshqaruvga o‘rgatish mumkin, ammo ma’lum bir jamiyatga xos bo‘lmagan madaniy unsurlarni og‘riqsiz singdirish va ularni ma’lum tarzda ishlashga majbur qilish juda mushkul. Shu nuqtai nazardan, F.Fukuyama mahalliy urf-odat va an’analarga haddan tashqari qat’iy rioya qilishdan ogohlantiradi, chunki bu amalda o‘ta samarasiz funksional tuzilmalarning saqlanib qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, muallif ta’kidlashicha, ko‘pincha g‘arblik “yordamchilar” u yoki bu mahalliy tuzilma qanday ishlashini tushunmay turib, u noto‘g‘ri ishlayapti, degan xulosaga kelishadi [3, - c. 144].

F.Fukuyama eng murakkab ma’muriy jarayonlarni mustaqil bajarish uchun mahalliy kadrlarni tarbiyalash va ta’lim berishga alohida e’tibor qaratadi. U ichki rivojlanishni talab qiladigan vazifalar bo‘lmasa, jamiyatda tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin emas deb hisoblaydi. Bugungi Xitoyning taraqqiyoti F.Fukuyamaning ushbu fikrlari to‘g‘riligini isbotlaydi. Chunki Xitoy eng murakkab ma’muriy jarayonlarni mustaqil bajarish uchun mahalliy kadrlarni tarbiyalash va ta’lim berishga alohida e’tibor qaratadi.

S.A.Pankratovning doktorlik dissertatsiyasida mashhur amerikalik olimning ishiga uyg‘un g‘oyalari rivojlantiriladi [4]. Tadqiqotchi taklif etgan modernizatsiyaning davlatchilik modeli o‘tish davridagi jamiyatlarning barqaror rivojlanishi masalasiga javob berishga qaratilgan edi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, siyosiy modernizatsiyaning chiziqsizligi bir qator umumtarixiy, ichki va tashqi omillar bilan belgilanadi. S.A.Pankratov “quvib yetuvchi modernizatsiya” imkoniyatlariga juda shubha bilan qaraydi, chunki bu aslida “organik modernizatsiya jarayonida shakllangan institutsional tuzilmalar va amaliyotlarni tasodifan o‘zlashtirish va moslashtirish”dan iborat bo‘lib, bu “zamonaviylik”ning an’anaviylik bilan to‘qnashuviga olib keladi [4, - c. 19]. Shuningdek, o‘tish davridagi jamiyatlarda demokratiyani klassik G‘arb mezonlari asosida baholash zamonaviy dunyo voqeligiga mos kelmaydi [4, - c. 24]. Biroq, avtoritarizmning u yoki bu shaklining ijobiy modernizatsion ahamiyatini baholashda, rejim usullarini oqlamasdan, islohotlarni boshqarishda sog‘lom markazlashtirishga e’tibor qaratish lozim. Muallifning fikricha, “davlatchilik o‘zgarishlar modeli demokratiya g‘oyalari va qadriyatlaridan voz kechishni emas, balki o‘tish davri jamiyatida samarali bo‘lgan institutsional amaliyotlarni yaratishni nazarda tutadi” [4, - c. 33]. Ushbu modernizatsiya modeli beqaror rivojlanish shakllarining takrorlanishini to‘xtatishga qaratilgan edi. Bu borada siyosiy hokimiyatning vazifasi oligarxik va mintaqaviy guruhlarining xudbin manfaatlarini cheklash, siyosiy elitani milliy manfaatlar atrofida jipslashtirishdan, modernizatsiya mafkurasini shakllantirish va tegishli vazifalarni hal etish uchun xalqni safarbar qilishdan iborat [4, - c. 33].

Aynan davlat darajasida siyosiy modernizatsiyaning o‘ziga xos vazifalari eng maqbul tarzda ishlab chiqilishi mumkinligi tufayli, globallashtirish jarayonlari islohotlarning mustaqil dasturiga xavf tug‘dirishi mumkin. Bundan tashqari, alohida davlatlarning farovonligi kuchliroq hamkorlarning

o‘zaro munosabatlariga bog‘liq bo‘lib qolganda, tarixan shakllangan nomutanosib xalqaro siyosiy-iqtisodiy aloqalar tizimi alohida jamiyatlarning barqaror rivojlanishiga tahdid solishi mumkin.

S.A.Pankratov siyosiy modernizatsiya dasturining muvaffaqiyatiga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni ajratib ko‘rsatadi. Uning fikricha, o‘tish davri jamiyatining tarixiy qiyofasi, uning hozirgi global iqtisodiy jarayonlarga qo‘shilganligi, siyosiy elitaning tarkibi va omma bilan munosabatlari xususiyati, mavjud ma‘muriy institutlarning tuzilmasi, qonuniyligi va legitimligi, mahalliy rahbarning har tomonlama o‘zgarishlarga intilishi hamda modernizatsiya g‘oyasining milliy madaniy qadriyatlarda aks etishi muhim ahamiyat kasb etadi [4, - c. 26].

S.A.Pankratov barqaror rivojlanishning mohiyatini aniqlashda, e‘tiborni jamiyatning siyosiy va ma‘naviy sohasidan tizimning har tomonlama ekologik jihatlariga qayta yo‘naltirishga alohida e‘tibor qaratadi. Shu munosabat bilan xalqaro munosabatlar sohasini insonparvarlashtirish g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etadi [4, - c. 29-30].

**Natija.** Modernizatsiya jarayoniga bo‘lgan qarashlar evolyutsiyasini tahlil qilish va olingan ma‘lumotlarni umumlashtirish natijasida, S.A.Pankratov o‘zining “bosqichli” modernizatsiya modelini taklif etishni lozim deb topadi.

Bosqichli modelga ko‘ra, ijtimoiy modernizatsiya - bu bosqichma-bosqich ijtimoiy o‘zgarishlar majmuasi bo‘lib, ularning umumiy natijasi sifat jihatidan yangi hayot darajasi, fuqarolik erkinliklari, iqtisodiy farovonlik va madaniy ishlab chiqarishga erishishdir. Ushbu ta‘rif doirasida siyosiy modernizatsiyaning o‘ziga xosligi islohotlarning tizimli ketma-ketligi bilan tavsiflanadi. Bunda har bir yangi qaror samarali siyosiy institutlar va amaliyotlarni qurish hamda rivojlantirish jarayonida jamiyatning keyingi harakatlarga tayyorligini inobatga olgan holda, oldingi qaror maqsadiga samarali erishishga asoslanadi. Shunday qilib, muallif modernizatsiya tushunchasining pozitivistik mohiyatidan g‘oyaviy chekinishni maqsadga muvofiq emas deb hisoblaydi. Chunki jamiyatdagi o‘zgarishlardan manfaatdor bo‘lganlar ishlab chiqilayotgan metodologiyadan, avvalo, barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishishning samarali usullarini izlaydilar.

Modernizatsiyaning bosqichli modelida ijtimoiy diagnostika va jamiyatning hozirgi holatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Muallif “aqliy tuzilmalar” tushunchasi ostida ijtimoiylashuvning nomoddiy omillari hamda ularni shaxsiy idrok etish va aks ettirish natijalarini birlashtiradi. Shu tariqa, aqliy tuzilmalar deganda shaxs yoki umuman jamiyatning g‘oyaviy-xulqiy aksi, ongli va ongsiz omillar majmuasi tushuniladi. Taklif etilgan tuzilmaning ko‘rgazmali tasvirini rivojlantirib, “aqliy tuzilmalar” ning bir qismi aysberg cho‘qqisiga o‘xshab, asosiy shaklning rivojlanish bosqichidayoq nisbatan erkin ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega ekanligini tasavvur qilish mumkin. Bu qism “aqliy mazmun” deb belgilanadi. Boshqacha aytganda, aqliy mazmun - bu shaxs tomonidan anglab yetilgan, o‘ziga yaqin g‘oyalar, qadriyatlar va xulq-atvor namunalari majmuasining ichki in‘ikosi bo‘lib, tegishli vazifa va zarur manbalar mavjud bo‘lganda, uni yaxlit nazariy tuzilmaga birlashtirishga qodir. Mentalitetning nisbatan barqaror va nisbatan o‘zgaruvchan tarkibiy qismlarini maxsus atamalardan foydalanmay farqlash g‘oyasi R.Inglxartning maqolasida uchraydi [5, -c. 111-112.].

O‘rta muddatli istiqbolda bashorat qilinadigan natijaga erishish uchun mental tuzilmalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatish ancha murakkab ko‘rinadi. Bunday vaziyatda, aqliy mazmunga ta‘sir o‘tkazish ancha samarali bo‘lishi mumkin.

Modernizatsiyaning bosqichli modeliga ko‘ra, ijtimoiy boshqaruv turining har bir o‘zgarishi ma‘lum bir mental mazmun uchun xos bo‘lgan muayyan aqliy tuzilmalarga mos keladi. Ushbu kontekstda modernizatsiyaning bosqichli modelining nazariy asosini P. Xersi va K. Blansharning vaziyatga bog‘liq yetakchilik nazariyasi tashkil etadi [6, -c. 473].

“Modernlik” holatidagi aqliy tuzilmalarga bir vaqtning o‘zida barcha ko‘rsatilgan xususiyatlar: ratsionalizm, samaradorlik, insonparvarlik va hamkorlikka yo‘nalganlik xosdir. Biroq, ularning jamiyat tomonidan o‘zlashtirilishi turli sur‘atlarda va qabul qilinish darajalarida kechadi. Ushbu modelda taklif etilgan xususiyatlarni egallash tartibini yetarlicha baholamaslik mumkin emas. Eng muhimi ratsionalizmdir. U strategik rejalashtirish, maqsad qo‘yish, mantiq, ilmiy tasniflash, dunyoning sabab-oqibat manzarasi va umuman tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq. G‘arbiy Yevropada elitalar orasidagi ommaviy ratsionallashuv davri XIII-XVI asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu bosqich ilmiy-

tadqiqot ishlari, ta'lim muassasalari sonining keskin o'sishi va ijtimoiy ongning sifat jihatidan o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Keng ma'noda samaradorlik deganda shaxsiy qadriyatlar tizimiga muvofiq eng yuqori natijalarga erishishga intilishni tushunmoq kerak. Zamonaviy voqelikda ratsionallashtirmasdan samaradorlikka erishish juda kam uchraydigan holat hisoblanadi. Ba'zi istisnolar bilan, bu vaziyatga puxta ishlab chiqilgan (samarali) kulnlarni kiritish mumkin, chunki ulardagi tegishli ratsionallikning yetishmasligi ularning haqiqiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bunga tarixiy misol sifatida Xitoy tarixidagi "Katta sakrash" siyosatini keltirish mumkin.

Samaradorlikka yo'naltirilgan yondashuv natijasida yuzaga kelgan demokratlashtirish (Angliya, AQSh) g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Buning aksi o'laroq, insonparvarlashuv oqibatida ro'y bergan demokratlashtirish tarixan inqiloblarga va ijtimoiy boshqaruvning avvalgi shakliga qaytishga olib kelgan (Fransiya, Rossiya).

"Xalqaro gumanistik va axloqiy ittifoq" insonparvarlikka quyidagicha ta'rif beradi: "Insonparvarlik – insonlar o'z hayotining ma'nosi va shaklini belgilash huquqi hamda majburiyatiga ega ekanligini tasdiqlovchi demokratik, axloqiy hayotiy nuqtai nazardir. Insonparvarlik inson va boshqa tabiiy qadriyatlarga asoslangan axloq, aql-idrok va erkin izlanish ruhida, insoniy qobiliyatlardan foydalanish orqali yanada insonparvar jamiyat qurishga da'vat etadi. Insonparvarlik teistik emas va real dunyoning g'ayritabiiy talqinini qabul qilmaydi" [7]. O'z navbatida, ushbu ta'rifni "Amerika gumanistlar uyushmasi" quyidagicha to'ldiradi: "Insonparvarlik – g'ayritabiiy narsalarga ishonchsiz, o'zimizni anglash va insoniyatga ko'proq naf keltirish maqsadida axloqiy hayot tarzini olib borish qobiliyatimiz va burchimizni tasdiqlaydigan ilg'or hayotiy pozitsiyadir" [8]. Keltirilgan ta'riflarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular insonparvarlik tushunchasining diniy emasligini ta'kidlaydi. Boshqacha aytganda, inson biror-bir nazoratdan qo'rqqani uchun emas, balki o'z-o'zidan halol bo'lishi va mukammallikka intilishi lozim. Shuningdek, insonparvarlik ta'riflariga ko'ra, inson o'z hayotining ma'nosi va shaklini mustaqil tanlashi kerak. Demak, insonparvarlikning asosiy xususiyati shaxsning ma'naviy va xulq-atvor erkinligi hamda atrof-dagilarning bu erkinlikka hurmat bilan qarashidir. Insonning o'z qarashlari, qadriyatlari, harakat tarzi va yaqin ijtimoiy guruhlarini ixtiyoriy ravishda o'zgartira olish qobiliyati insonparvarlik tushunchasining ob'ektiv ifodasidir va bu ishonchli tadqiqot uchun yetarli hisoblanadi.

Bosqichli modelga ko'ra, ijtimoiy modernizatsiyani amalga oshirishning samarali vositasi - jamiyat ongiga, maqsadli, avvalo, namunali shaxslar orqali, kerakli xulq-atvor va hayot tarzini loyihalashtirish va singdirishdir. Shuni e'tiborga olish lozimki, ayrim "qahramonlar" tabiiy ravishda paydo bo'lsa, boshqalari dastlab hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, so'ngra "xalq sevgisi" tufayli yashaydi, uchinchilari esa yuqoridan qo'llab-quvvatlanmasa, butunlay yo'qoladi.

Ma'lumki, nodemokratik tuzumlar sharoitida ijobiy va salbiy qahramonlarni yaratish faol qo'llanilgan. Bu tuzilmalar modernizatsiya jarayonining boshqa xususiyatlariga ega edimi?

Avtoritar yoki totalitar tuzum sharoitidagi modernizatsiya faqat ba'zi tashqi jihatlari bilangina an'anaviy G'arb tushunchasidagi modernizatsiyaga o'xshaydi. Eng xarakterli xususiyati islohotlarga qarshilikni (quloqlashtirish, qattiq hukmlar bilan namoyishkorona sud jarayonlari) keskin bartaraf etish imkoniyatidir. SSSR tajribasiga asoslanib, an'anaviy turmush tarziga ega bo'lgan jamiyatlarni nodemokratik modernizatsiya qilishning bir qator holatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. 1930 yillar boshidagi ijtimoiy rivojlanishni o'sha davrgacha misli ko'rilmagan hodisa deb hisoblanishi mumkin. Davlat, partiya va kasaba uyushmalari apparatlarini ommaviy ishchilardan tahkil etish jarayoni ro'y berdi [9, -c. 38-46]. G'arb modernizatsiya modeli kasbiy fazilatlarini baholashni nazarda tutgan bo'lsa, sovet modernizatsiyasi sinfiy mansublikni asosiy mezon deb hisoblagan.

Iqtisodiyot sohasida SSSRning sotsialistik modernizatsiyasining eng muhim xususiyatlaridan biri ishsizlikni butunlay tugatish edi. XX asrning 20-30 yillarning ikkinchi yarmida Sovet Ittifoqida iqtisodiyotning davlat sektori o'sish sur'atlari ish o'rinlariga bo'lgan talabni deyarli to'liq qondirgan edi.

Shu sababli rivojlanishning sotsialistik modeli (P.Shtompka tomonidan "soxta modernizatsiya" deb atalgan [10, -c. 22]) "samaradorlik" va "hamkorlik" rolini haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatayotganini kuzatish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Dastlabki davrdagi modernizatsiya konsepsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar edi: komplekslilik (madaniyat, sanoat, siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlar bir vaqtning o‘zida o‘zgarishi), inqilobiylik (tezkor sifat o‘zgarishi), universallik (modernizatsiya yo‘llari orasidagi farqlarning minimalligi) va algoritmiklik (sabab-oqibat aloqalarining bashorat qilinishi). Bu holatlar taklif etilgan g‘oyalarning nazariy xarakterda ekanligi va asosan G‘arb tajribasiga tayanganligidan kelib chiqqan edi. Keyingisi uzoq vaqt davomida modernizatsiyani g‘arblashtirishga tenglashtirdi. Keyinchalik, D. Ryushemeyer qisman siyosiy modernizatsiya konsepsiyasida, avvalo, o‘zgarishlarning komplekslilik xususiyatini rad etdi. U siyosiy qadriyatlar o‘zgarishlarga eng kam moyil ekanligini ta’kidladi. Shuningdek, jamiyat o‘zining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha qanchalik bir xil bo‘lsa, uni modernizatsiya qilish uchun shunchalik ko‘p resurslar talab etilishini va bu jarayon shunchalik katta xavf-xatarlar bilan kechishini qayd etdi.

Modernizatsiyaning ko‘p chiziqli modeli paydo bo‘lishi bilan siyosiy o‘zgarishlar jarayonida demokratiyaning ilgari mustahkam bo‘lgan o‘rni shubha ostiga olinmoqda. Amaliyotda siyosiy va ijtimoiy modernizatsiya nazariyasi rivojlanishining dastlabki bosqichida taklif etilgan modellarga qaraganda ancha murakkab ekanligi ma’lum bo‘ldi. XX asr 60 yillarning oxiridan boshlab, olimlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarining farqiga, tashqi siyosiy omillarning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratib, o‘rganilayotgan modernizatsiya ob’ektlari doirasini kengaytirdilar va o‘z uslublarini hozirgi kunda ma’lum bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar inqirozlari tajribasi bilan boyitdilar.

Siyosiy jarayonlar ularning ijtimoiy-madaniy jihatlarni hisobga olgan holda tahlil etila boshlandi. Bugungi kunda milliy an’analarni e’tiborga olmasdan rivojlanish uzoq muddatli istiqbolda xavfli deb qaralmoqda.

Haqiqiy o‘zgarishlarning ziddiyatligi va nomuvofiqligini hamda an’anaviy va modernizatsiyalashgan me’yorlarning kelishmovchiliklarga olib keluvchi omillarini tahlil qilish mavjud siyosiy va diniy elitaning rolini chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi.

Ijtimoiy rivojlanishga oid zamonaviy konsepsiyalarda, siyosiy modernizatsiya - jamiyatning o‘zgarish jarayonini boshdan kechirayotgan davrdagi juda muhim va murakkab bosqichdir. Bu bosqich ijtimoiy va iqtisodiy resurslarni safarbar etishni, ma’muriy organlardan qat’iyatlikni, shuningdek, mazkur hududda yashovchi aholining aksariyati tomonidan tushunish va qo‘llab-quvvatlashni talab etadi.

Bu esa har bir muayyan jamiyatda modernizatsiya muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun islohotlar aynan shu jamiyat a’zolarining ko‘pchiligi anglagan o‘ziga xos muammolarga javob bo‘lishi lozim degan xulosa qilinishiga olib keladi. Faqat shundagina jamiyatning o‘zi uchun yangi bo‘lgan jarayonlarda faol ishtirok etishiga umid qilish mumkin. Modernizatsiyaning afzalliklari, uni amalga oshirish yo‘llari va alohida vazifalar aholining mutlaq ko‘pchiligiga tushunarli bo‘lishi shart.

2004 yilda F. Fukuyama modernizatsiya paradigmasini qayta ko‘rib chiqib, davlat vakolatlari va ushbu vakolatlarni amalga oshirish qobiliyati tushunchalarini farqladi. Bizningcha ham, aynan so‘nggi xususiyat “davlat kuchi”ni tavsiflaydi. Davlat institutlarining samaradorligi (kuchi) qonuniylik, tizimlilik, tashkiliy loyihalashtirish va boshqaruvga asoslanadi. Muayyan jamiyatning tarixiy va madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda, kuchli ixtisoslashgan davlat hokimiyati organlariga tayanadigan samarali, o‘z-o‘zini takomillashtiradigan siyosiy tizimni barpo etish siyosiy modernizatsiyaning eng muhim vazifasi sifatida e’tirof etilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Daron Acemoglu, James Robinson “Why nations fail : the origins of power, prosperity, and poverty”. London : Profile, 2013, 529 pages.
2. Francis Fukuyama State-Building: Governance and World Order in the 21st Century Cornell University Press, 2004.
3. Фукуяма Ф. Сильное государство. Управление и мировой порядок в XXI веке. М., 2006.

4. Панкратов С.А. Политическая модернизация России в контексте устойчивого развития (теоретический аспект). - Автореф. диссертации д-ра полит. наук. - Краснодар, 2006.
5. Инглхарт Р. Культура и демократия // Культура имеет значение. -М., 2002.
6. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. -М., 2010.
7. Электронный ресурс: IHEU Minimum Statement on Humanism // [iheu.org/minimumstatement](http://iheu.org/minimumstatement).
8. Электронный ресурс: ABOUT HUMANISM // [americanhumanist.org/Who\\_We\\_Are/About\\_Humanism](http://americanhumanist.org/Who_We_Are/About_Humanism).
9. Гимпельсон Е.Г. “Орабочивание” советского государственного аппарата: иллюзии и реальность // Отечественная история Институт. - 2000.
10. Российская модернизация: размышляя о самобытности. Под ред. Пайна Э.А и Волкогоновой О.Д. -М., 2008.

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 6, ISSUE 1

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000